

## XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA NOKONSTRUKTIV BIRLIKLARNING IFODALANISHI "BESH BOLALI YIGITCHA" ASARI

*Termiz davlat universiteti talabasi:  
Xonmurotova Munisa Axmedovna  
Ilmiy rahbar: D.A.Ergasheva*

**Annotasiya:** Maqolada Xudoyberdi To‘xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asarida nokonstruktiv birliklarning ifodalanishi xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** nokonstruktiv bo‘laklar, undalma, atov birliklari, kiritma

**Abstract:** The article discusses the expression of non-constructive units in Khudoyberdi Tokhtaboyev's "A Boy with Five Children".

**Key words:** non-constructive clauses, impulse, noun units, introduction

Gaplar tarkibida qo‘llaniladigan nokonstruktiv bo‘laklar sirasiga undalma, kirish va kiritmalarni kiritishimiz mumkin.

Undalma gap tarkibidagi II shaxs kishilik olmoshi bo‘lgan so‘z shakl ma’nosini muayyanlashtiruvchi unsur bo‘lib, u mantiqan so‘z kengaytiruvchisi maqomida bo‘ladi. Undalma mazmunan bog‘langan so‘z shakl nutq yo‘naltirilgan shaxs yoki narsa predmetni ifodalaydi. Undalma vazifasida odatda bosh kelishikdagi ot, ba’zan otlashgan so‘z shakllar keladi: Xola, ertaga kelasizmi?

Borganlar gapiring.

Atov birliklari va qurilmalari tarkibiga kiradigan, tarkibidagi modal va tasdiq inkor ma’nosini muayyanlashtiradigan gap kesimiga bog‘lanadigan birliklar kirish kengaytiruvchilar deb ataladi, masalan, Gulnoraning aytishicha, ertaga ustoz kelarmush.

To‘g‘ri, barcha ishlarga aybdor u! O‘ylab qaragam, gaplaringizda jon bor.

Kiritma qurilma gap holatida bo‘lib, nutqda gapdan anglashilayotgan fikrga qo‘shimcha tarzda yangi fikrni bayon etish vositasi, masalan, Moshinadan ( hamma band bo‘lganligi uchun) yuklarni men tushiradigan bo‘ldim. Bolaga (ko‘chada adashib qolgan ekan) uyini topishda ko‘maklashdim. Bu gaplarda qavs ichida keltirilgan gaplar kiritma qurilma sanaladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning " Besh bolali yigitcha" asarida: –shunday qilib desangiz, Sultonni na maktab, na oyim, na men yo‘lga sololyapmiz, boshimizga bitgan balo bo‘ldi u, tinchgina o‘yin o‘ynab, berganimni yeb yursa ham mayli edi- ya!

(Kirish so‘z. 45)

– Xullas, Sulton mana shunaqangi cho‘rtkesar, hech ta’riflab bo‘lmaydigan darajada dangasa bo‘lib boryapti, aftiga qarab bo‘lmaydi. ( Kirish so‘z. 43)

– To‘g‘ri! Afandi bo‘lsin! (Kirish so‘z. 48)

- Ha, mayli... – nihoyat rozi bo‘ldi muallim gapini boshlashdan oldin odatda bir kulib olardi, ha shunaqa bo‘ldi, kulib, obbo senlar-ey, deb qo‘ydi. (Kirish so‘z. 48)
- Yo‘q, men haligi lashkarboshini aytyapman. (Inkor kirish so‘z. 23)
- To‘g‘ri , tasdiqladi To‘siq tog‘am, lekin biz ham ulardan qolishmaymiz. ( Tasdiq kirish so‘z. 24)
- Shunaqa shekilli...– yo‘tal aralash dedi dadam. (Gumon kirish so‘z. 25)
- E attang! – dedi Parpi buvam bosh chayqab. (Kirish so‘z. 34)
- Otajonim!
- Akajonim!
- Pahlavonim!
- Hoy, adasi, to‘xtang! – degan ovozlar eshitilib qoldi har tomondan. ( Undalma, chaqirish undovi. 33)

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R. Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent - 2020.
2. B. Mengliyev. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent - 2018.
3. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Besh bolali yigitcha. Toshkent. " Yangi asr" nashriyoti – 2009.